

YOZYOVON TUMANINING AHOLISI

Madaminov Zafarjon.

Geografiya kafedrası mudidri

Dotsent va PhD

zafarjonmadaminov@gmail.com

Jabborova Marhaboxon Asqarali qizi

Farg'ona Davlat Universiteti geografiya yo'nalishi
talabasi

Annotatsiya: Yozyovon tumani Farg'ona viloyatining tumanlaridan biri hisoblanadi.

Tuman boshqa tumanlardan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashuvi, geografik joylashuv, aholisining o'sish sur'ati, tarixiy o'ziga xoslik, ijtimoiy infratuzilma kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi. Yozyovon tumani aholisi so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atiga ega.

2023 – yilning 1 – oktabr holatiga ko'ra 119 172 kishi tashkil etgan bo'lsa, 2024 – yil 1 – aprelga kelib 120 240 kishiga yetgan. Bu esa tahminan 2 % lik o'sishni ko'rsatadi. Bu demokratik o'sish tabiiy tug'ilish ko'rsatkichlari yuqoriligi va migratsiya jarayonlarining nisbatan barqarorligi bilan bo'liq. Shu sababli, aholining tez o'sayotganini aytish mumkin, ammo bu o'sish mo'tadil tezlikda amalga oshmoqda.

Kalit so'z: Yozyovon, Yozyovon tumani aholisi, aholi o'sishi, migratsiya holati, demografik holat, yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashuvi, geografik joylashuv, aholisining o'sish sur'ati, tarixiy o'ziga xoslik, ijtimoiy infratuzilma.

НАСЕЛЕНИЕ РАЙОНА ЯЗЬЯВАН.

Аннотация: Район Язьяван считается одним из районов Ферганской области. Район выделяется своей специализацией на сельском хозяйстве, географическим расположением, темпами роста населения, исторической уникальностью и социальной инфраструктурой. Население района Язьяван в последние годы демонстрирует стабильные на 1 октября 2023 года численность населения составляла 119 172 человека. Ожидается, что к 1 апреля 2024 года этот показатель

достигнем 120 240 человек что свидетельствует о приблизительном росте на 2%.

Этот рост объясняется естественным прироста населения за счёт высокого уровня

рождаемости и относительно низкой. Миграции, что обеспечивает стабильность населения. Таким образом, рост населения осуществляется в умеренных темпах, благодаря успешно реализуемой социально экономической политике.

Ключевые слово: Язьяван, население района Язьяван, рост населения, миграция, демографическая ситуация, распределенные по местам проживания, специализация на сельском хозяйстве, географическое расположение, темпы роста населения, историческая уникальность, социальная инфраструктура.

POPULATION OF YOZYOVON DISTRICT.

Annatatsion: *Yozyovon District is considered one of the districts of Fergana region. The districts differs from others due to its specialization in agriculture, geographical locatival uniqueness, and social infrastruktura. The population of Yozyovon District had shown steady growth in recent years. As of October 1, 2023, the population was 119,172. Bu April 1, 2024, this figure is expected to reach 120,240 people, which indicates ana approximate 2 % growth rate. This growth is attributed to natural population growth dur to a hich birth rate and rela tirely lower migration rates, ensuring population growth pace, facilitated by well-implemented socio-economic policies.*

Keywords: *Yozyovon, population of Yozyovon district, population growth, migration trends, demographic situation, distribution by settlement, agricultural specialization,geographical location, population growth rate, historical uniqueness, social infrastructure.*

Kirish: Yozyovon tumani dastlab, 1952-yil 16-aprelda tashkil etilgan. 1959-yil 14-dekabrda Toshloq tumani bilan birlashtirilib, Oxunboboyev nomi berilgan. 1962 - yil 24 - dekabrda Oxunboboyev tumaniga Marg‘ilon tumani ham qo‘shilgan.1980v- yil 27 -dekabrda Yozyovon tumani qayta tuzilgan. Yozyovon tumani aholisi so‘nggi yillarda barqaror o‘shish sur‘atiga ega. 2023 - yil 1 - oktabr holatiga aholi soni 119 172 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 - yil 1 - aprelga kelib 120 240 kishiga yetgan. Bu esa tahminan 2 % lik o‘shishni ko‘rsatadi. Bu demografik o‘shish tabiiy tug‘ilish ko‘rsatkichlari yuqoriligi

va migratsiya jarayonlarining nisbatan barqarorligi bilan bog‘liq. Shu sababli, aholining tez o‘sayotganini aytish mumkin, ammo bu o‘shish mo‘tadil tezlikda amalga oshmoqda.

Yozyovon tumani bo‘yicha doimiy aholisi 11 39 87 kishini tashkil etdi. Shundan: shahar aholisi -11 39 87 kishini tashkil etdi. Qishloq aholisi – 45 339 kishi ,erkaklar - 58 038 kishi.ayollar-55 949 kishi hisoblanadi. 2024 -yilning yanvar -iyun oyglari holatiga

Yozyovon tumanining doimiy aholisi 120 807 kishini tashkil etadi. 2024 - yil 1 - aprel holatiga Yozyovon tumaning doimiy aholisi 120 240 kishiga yetdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 102% ni tashkil etgan. 2023 - yilning 1 - iyul holatiga

Yozyovonning doimiy aholisi soni 118 334 kishini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 102,2% tashkil etgan. 2023 - yilning 1-aprel holatiga esa tumanning doimiy aholisi soni 117 792 kishini tashkil etgan. 2022 - yilning yanvar-dekabr oylari holatiga Yozyovon tumanining doimiy aholisi soni 117 251 kishini tashkil etdi. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining ma‘lumotiga ko‘ra, 2022 - yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko‘ra tumaning doimiy aholisi soni 11 65 39 kishini tashkil etdi.

Aholining jinsiy tarkibi quyidagicha: ayollar - 59 005 kishi, erkaklar - 61 235 kishi.

Yashash joyi bo‘yicha: shaharda yashovchilar-71 679 kishi, qishloqda yashovchilar-48 561 kishi. 2024 - yilning 1 - aprel holatiga ko‘ra, tuman bo‘yicha quyidagi demografik ko‘rsatkichlar qayd etilgan: tug‘ilishlar soni - 596 kishi, o‘limlar soni- 113 kishi, nikohlar soni - 88 kishi, ajrimlar soni - 26 kishi, ko‘chib kelganlar-33 kishi, ko‘chib ketganlar - 49 kishi.Aholining ko‘pchiligi shaharlarda yashaydi, bu ko‘rsatkich 71 679 kishi yoki jami

aholining 59,6 % ini tashkil etadi. Qishloq aholisi esa 48 561 nafar bo'lib, umumiy aholi sonining 40,4% ini tashkil etadi. Demografik holati: 2024 - yilda tumandagi tug'ilishlar soni 596 nafarni, o'limlar soni esa 113 nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish ko'rsatkichlari ijobiy bo'lgan. Bundan tashqari 88 ta nikoh ro'yhatga olingan, ajrimlar esa 26 ta qayd etilgan.

Migratsiya holati: 2024 - yilning dastlabki choragida 33 kishi tuman hududiga ko'chib kelgan, 49 kishi esa boshqa hududlarga ko'chib ketgan. Aholi o'sishi: Yozyovon tumani aholisi 2023 – yil 1 – oktabrda 119 172 kishi bo'lgan bo'lsa, 2024 – yilga kelib aholi soni 120 240 kishiga yetib, 2% ha o'sish buzilgan. Farg'ona viloyatida joylashgan 15 ta tumandan biri bo'lgan Yozyovon tumani o'zining quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: a) Qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi: Yozyovon tumani asosan qishloq xo'jaligi

mahsulotlari, ayniqsa, paxtachilik va bog'dorchilik rivojlangan hudud sifatida tanilgan.

Tumanning yer resurslari unumdorligi sababli, bu yerda hosildorlik yuqori bo'ladi, b) geografik joylashuv: Tuman viloyat markazi va boshqa strategik tumanlar bilan qulay yo'l tarmog'i orqali bog'langan. Bu esa hududning iqtisodiy rivojlanishiga muhim rol o'ynaydi, c) aholining o'sish sur'ati: Yozyovon tumani aholisi barqaror o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lib, demografik jihatdan faol hisoblanadi. Tug'ilish darajasini yuqori va tabiiy o'sish davom etmoqda, d) tarixiy o'ziga xoslik: Yozyovon tumani 1952-yilda tashkil etilgan va o'zining mustaqillik yillarida iqtisodiy va madaniy rivojlanishi bilan ajralib turadi, e) ijtimoiy infratuzilma: tumanda ta'lim, soliqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalar rivojlangan bo'lib, bu hudud aholisi uchun yaxshi yashash sharoitlarini ta'minlaydi. Yozyovon tumani tarixdan aholi ko'plab etnik guruhlardan iborat bo'lgan. Bu hudud qadim zamonlardan buyon turli xalqlar tomonidan istiqomat qilingan. Tumanning

aholisini asosiy qismi o'zbeklar tashkil etadi, lekin tarixan bu yerda Turkmanlar, qozoqlar, ruslar, tatarlar va boshqa millat vakillari ham yashagan. Yozyovon tumanining hududiy tarixi bilan boy bo'lib, ko'plab arxeologik yodgorliklar, qadimiy shaharchalar va madaniy meroslar mavjud. Aholisining tarkibi asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan, bunda paxta, g'alla, meva va sabzavotlar yetishtirish asosiy sohalardan biri bo'lgan. So'nggi yillarda tuman iqtisodiy rivojlanish va aholi soni oshishi bilan yangi

shaharchalar va qishloqlar paydo bo'ldi. 2023- yilning 1-oktabr holatiga Yozyovon tumanining doimiy aholisi soni 119 172 kishini tashkil etdi.

Shundan:

Ayollar soni – 58 475 kishi

Erkaklar soni – 60 697 kishi

Shaharda yashovchilar – 71069 kishi

Qishloqda yashovchilar – 48 103 kishi

Tug'ilish soni – 2 287 kishi

O'limlar soni – 315 kishi

Nikohlar soni – 560 kishi

Ajrimlar soni – 122 kishi

Ko'chib kelgan – 216 kishi

Ko'chib ketgan – 153 kishi miqdorida qayd etildi

Farg'ona (1907-yilgacha — Yangi Marg'ilon; 1907—1924-yillarda Skobelev, mahalliy talaffuzda — Iskobil deb atalgan. Podsho Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishda va keyingi yillarda ko'plab qirg'inbarotlar uyushtirgan generali M.D.Skobelev nomiga qo'yilgan) — Farg'ona viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi, respublikaning yirik shaharlaridan biri. Maydoni 0,09 ming km². Aholisi 222,4 ming kishi (2004, Farg'ona vodiysidagi shaharlar ichida aholi soni bo'yicha 3-o'rinda).

Shahar Farg'ona vodiysining janub qismida, Olay tog'larining etagida, 580 m balandlikda joylashgan. Iqlimi kontinental. O'rtacha yillik temperatura 13°. Yanvarning o'rtacha temperaturasi —2,7°, iyulniki 26,4°. Eng past temperatura 27°, eng yuqori temperatura 42°. Yiliga 192 mm yog'in tushadi. Yog'inning ko'p qismi qish va bahor fasllarida yog'adi. G'arbdan ba'zan qattiq shamol va garmsel, Olay tog'i (Shohimardonsoy vodiysi)dan tog'vodi shamoli esadi. Yozyovon — O'zbekiston

Respublikasining Farg'ona viloyatidagi shaharcha (1974-yildan). Yozyovon tumani markazi. Yozyovon nomi yozi yovon, ya'ni yozgi cho'l, tekislik ma'nosini bildiradi. Yozyovon tumani Farg'ona shahridan 30 km, yaqin temir yo'l stansiyasi — Marg'ilon (22 km). Aholisi 10,9 ming kishi (2000); Umumiy ta'lim maktablari, 1 kollej, 2 litsey, 3 kutubxona, 2 kasalxona, 3 tibbiy punkt, aloqa bo'limi, muzey, bozor, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, kichik va xususiy korxonalar bor.

Yozyovon tumani Farg'ona vodiysining eng markazida joylashgan. Andijon, Qo'qon, Farg'ona, Namangan shaharlarini birlashtiruvchi avtomobil yo'llari o'tgan. Bundan tashqari A373 magistral yo'li o'tgan.[2]. Yozyovon tumani aholisi soni jihatidan Farg'ona viloyatidagi boshqa tumanlarga qaraganda o'rtacha darajada hisoblanadi. Farg'ona viloyatidagi ba'zi tumanlar, masalan Oltiariq va Qo'qon shahri atrofidagi hududlarda aholi zichligi

yuqoriroq bo'lishi mumkin. Biroq, Yozyovonning aholisi viloyatdagi eng kam yoki eng ko'p yashaydigan tumanlar qatoriga kirmaydi. Tuman aholisi soni bo'yicha Farg'ona viloyatidagi tumanlar orasida o'rtacha ko'rsatkichga ega. 2023- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, Yozyovon tumanining doimiy aholisi 119 172 kishini tashkil etadi. Taqqoslash uchun, Farg'ona tumanida shu davrda aholi soni 220 383 kishi bo'lgan. Shuningdek, 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, Farg'ona viloyatining umumiy aholisi-4 123,6 ming kishini tashkil etgan. Bu ma'lumotlar Yozyovon tumanining aholisi viloyatdagi boshqa tumanlarga nisbatan o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatadi. Taqqoslash uchun:

Farg'ona tumani aholisi-220 xo'jaligi bilan shug'ullanadigan hudud bo'lib, aholi zichligi nisbatan past. Tumanning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi boshqa hududlarga nisbatan barqaror. Agar tug'ilish darajasi saqlanib qolsa va yoshlarda yuqori bo'lsa, aholi ko'payishi ehtimoli katta. Agarda ish imkoniyatlarining cheklanganligi yoshlarning shaharlarga yoki xorijga ketishiga olib kelishi mumkin. Tumanda urbanizatsiya ya'ni shaharlarga ko'chib o'tish tendensiyasi davom etsa, qishloq hududida aholi kamayishi ehtimoli bor. Umuman olganda, Yozyovon tumani aholisining kelajakdagi dinakasi tabiiy o'sish va iqtisodiy sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunda aholi soni barqaror o'sishda davom etmoqda, lekin migratsiya jarayonlari ta'sirini inobatga olish zarur.

Xulosa: O‘zbekiston Milliy Ensiklopedsiyasi Yozyovon tumanining aholisi bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar keltirilgan, 2023 – yil ma’lumotlariga ko‘ra, tuman aholisi 119 ming kishini tashkil etadi. Milliy tarkibi esa, aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etadi.

Masalan, qirg‘iz, tojik, rus, tatar, qoraqalpoq va boshqa millatlar ham bor. Aholi zichligi 1 km vadrat maydonga o‘rtacha 250 kishi trio keladi (2000-yil ma’lumotlari). Ma’muriy tuzilishi esa, tumanda 2 ta shaharcha (Yozyovon, Qoratepa) va 16 ta mahalla fuqarolari yerini bor. 33 ta mahalla ham. Masalan, 2000-yil ma’lumotlariga ko‘ra 10,9 ming aholiga

ega bo‘lgan. “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish, hududlarning taraqqiyoti va aholi farovonligi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning rahbarligi davrida Yozyovon tumani kabi hududlarda qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarida rivojlanish

kuzatilgan. Masalan, Yozyovon cho‘llarining o‘zlashtirilishi va yangi yerlarning haydalishi natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi oshgan. Hozirgi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yozyovon tumani haqida bir necha marta fikr bildirgan. Masalan,

2021 – yil 23 – aprel kuni xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor urilishida, Farg‘ona viloyati, O‘zbekiston va Yozyovon tumanlari xizmatlari ko‘rsatish sohasida eng past natijani qayd etgani ta’kidlangan. Shuningdek, 2021 – yil 5 – fevral kuni Farg‘ona shahrida xalq deputatlari viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida Prezident tumanlardagi muassasalarning ish usuli va joylardagi muammolar haqida to‘xtalib, rahbarlarning xalq bilan yaqin bo‘lishi va ularning dardini bilish kerakligini ta’kidlagan. Ushbu tanqidiy fikrlar Yozyovon tumanida xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va rahbarlarning faoliyatini yaxshilash zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:
1. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” kitobi.
2. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Yozyovon tumani haqidagi so‘zlari.
3. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Yozyovon tumani haqidagi so‘zlari.